

**FUQAROLIK HUQUQIDA DELIKT MAJBURIYATLARI
INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA EVOLYUSIYASI**

Obloqulov Islombek Azamat o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

***Annotatsiya:** mazkur ilmiy ishda fuqarolik huquqining muhim institutlaridan biri bo'lgan delikt majburiyatlarining huquqiy tabiati va tarixiy shakllanish bosqichlari o'rganilgan. Tadqiqotda delikt majburiyatlarining mazmun-mohiyati, ular yuzaga kelishining huquqiy asoslari, shuningdek, ushbu institutning klassik va zamonaviy talqinlari solishtirma-huquqiy yondashuv orqali tahlil qilinadi. Delikt majburiyatlarining boshqa majburiyat turlaridan farqli jihatlari, ularning davlat va jamiyat oldidagi funksional ahamiyati ko'rsatib beriladi. Ishda xorijiy mamlakatlar qonunchiligidagi delikt huquqi rivoji hamda O'zbekiston fuqarolik qonunchiligidagi me'yorlar bilan taqqosiy tahlil amalga oshirilgan. Shuningdek, delikt majburiyatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning takomillashtirishiga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** delikt majburiyatlari, fuqarolik huquqi, javobgarlik, zarar yetkazish, huquqiy tartibga solish, tortishuvli majburiyatlar, komparativ huquq, normativ baza, fuqarolik javobgarligi, delikt-huquqiy evolyusiya.*

**ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ЭВОЛЮЦИЯ ИНСТИТУТА
ДЕЛИКТНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В ГРАЖДАНСКОМ ПРАВЕ**

Облокулов Исломбек

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

***Аннотация:** в данной научной работе исследуются правовая природа и этапы исторического формирования института деликтной ответственности как одного из важных институтов гражданского права. В исследовании анализируется сущность деликтных обязательств, их правовые основания возникновения, а также сравнительно-правовой анализ*

классических и современных подходов к данному институту. Особое внимание уделяется отличиям деликтных обязательств от других видов обязательств, а также их функциональному значению для государства и общества. Проведен сравнительный анализ развития деликтного права в зарубежных странах и норм гражданского законодательства Республики Узбекистан. Кроме того, разработаны научно-практические предложения по совершенствованию нормативно-правовой базы регулирования деликтных обязательств.

Ключевые слова: деликтные обязательства, гражданское право, ответственность, причинение вреда, правовое регулирование, спорные обязательства, сравнительное право, нормативная база, гражданская ответственность, эволюция деликтного права.

THE LEGAL NATURE AND EVOLUTION OF THE TORT OBLIGATIONS INSTITUTE IN CIVIL LAW

Oblokulov Islombek

Master's student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this scientific study examines the legal nature and historical development stages of the institute of delictual obligations, which is one of the key institutions of civil law. The research analyzes the essence of delictual obligations, their legal grounds for occurrence, as well as a comparative legal analysis of classical and modern interpretations of this institute. The distinctions of delictual obligations from other types of obligations and their functional importance for the state and society are highlighted. A comparative analysis of the development of delict law in foreign countries and the norms of the civil legislation of the Republic of Uzbekistan has been conducted. Additionally, scientific and practical*

recommendations for improving the normative-legal framework regulating delictual obligations have been developed.

Keywords: *delictual obligations, civil law, liability, harm caused, legal regulation, disputed obligations, comparative law, normative framework, civil liability, delict law evolution.*

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini daxlsiz va davlat himoyasida ekanligini va shu bilan birgalikda davlat organlari jumladan prokuratura organlari tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato-kamchiliklar, g'ayriqonuniy harakatlar yoki zarur paytda harakatsizlik holatlarini oldini olishga qaratilgan tizimda keng islohotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng demokratik-huquqiy davlat barpo etish va inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida tizimli islohotlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, so'nggi yillarda ijtimoiy adolatni qaror toptirish, davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish va zarar ko'rgan fuqarolarning huquqini tiklash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.¹ Prokuratura organlari tomonidan fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash tizimi O'zbekistonda ijtimoiy adolat, qonuniylik va huquqiy davlatning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. Prokuratura organlarining davlat organlari, jumladan, sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi muassasalar bilan hamkorligi jamiyatdagi huquqiy tartibni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, prokuratura organlari faoliyatida yuzaga kelgan noqonuniy qarorlar yoki g'ayrihuquqiy harakatlar (harakatsizlik) natijasida fuqarolarga yetkazilgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2023-yil 20-dekabr.

zararlarni qoplash, bu sohadagi normativ-huquqiy bazani yanada mukammallashtirishni talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.²

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Tadqiqot olib borish jarayonida tarixiy dialektik, qiyisiy-huquqiy, formal-mantiqiy statistik, tizimlashtirish va ilmiy bilishning boshqa usullari qo‘llanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

“Delikt majburiyatlari” atamasi **lotincha** “**delictum**” so‘zidan olingan bo‘lib, lotin tilida “**delictum**” — “huquqbuzarlik”, “jinoyat”, “noto‘g‘ri harakat” degan ma’noni anglatadi. Fuqarolik huquqida “delikt” tushunchasi asosan **rim huquqidan** kelib chiqqan bo‘lib, u noqonuniy, zarar yetkazuvchi harakat yoki harakatsizlikni bildiradi. Shuning uchun, “delikt majburiyatlari” — bu

²O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 yil, 20-modda.
SJIF: 5.051

“huquqbuzarlik natijasida yuzaga kelgan javobgarlik” degan mazmunga ega bo‘lgan huquqiy tushuncha hisoblanadi.

Delikt majburiyatlarining asosiy vazifasi — huquqiy nizolarni soddalashtirish va ularni sud yo‘li bilan hal qilishni ta’minlashdir. Shu bilan birga, delikt javobgarligi tizimi zarar yetkazgan shaxsni o‘z harakatlari natijasida yuzaga kelgan oqibatlar uchun javobgarlikka tortadi, bu esa huquqni hurmat qilishni va adolat prinsiplarini mustahkamlaydi. Fuqarolik huquqidagi delikt majburiyatlari shaxslararo munosabatlarning barqarorligi va ijtimoiy adolatning ta’minlanishiga xizmat qiluvchi muhim institut hisoblanadi. Shuningdek, delikt majburiyatlari institutining fuqarolik huquqidagi o‘rni prokuratura organlari kabi davlat tuzilmalarining fuqarolarga yetkazilgan zararlarni qoplash jarayonlarida ko‘rinadi. Bu majburiyatlar orqali davlat organlari o‘z faoliyatida yuzaga kelgan huquqbuzarliklarni bartaraf etishda hamda fuqarolar huquqlarini himoya qilishda huquqiy asoslarni ta’minlaydi.

Natijada, delikt majburiyatlari tushunchasi fuqarolik huquqining eng asosiy va dolzarb elementlaridan biri bo‘lib, u jamiyatda huquqiy tartibot va barqarorlikni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Delikt majburiyatlari doirasida obyekt tushunchasi alohida nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki har qanday majburiyatda bo‘lgani kabi, delikt majburiyatida ham munosabatlar biror narsaga, ya’ni obyektga qaratilgan bo‘ladi. Mazkur obyekt — huquqiy munosabatning mazmuni bo‘lib, fuqarolik huquqi bilan himoyalangan manfaatlarga zarar yetkazilganida yuzaga chiqadi. Delikt majburiyatining obyekt sifatida, avvalo, shaxsning mulkiy huquqlari, nomoddiy ne‘matlari (sharaf, qadr-qimmat, ishchanlik obro‘si) va boshqa qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari namoyon bo‘ladi. Zarar aynan shu obyektlarga

yetkaziladi va delikt majburiyatining mazmuni — aynan shu zararlarni bartaraf etishdan iborat bo‘ladi. Fuqarolik huquqida obyekt — subyektlar o‘rtasidagi majburiyatlar nimaga yo‘naltirilganini anglatadi. Delikt majburiyatlari kontekstida bu — yetkazilgan zararining xususiyatidan kelib chiqib, u yoki bu huquqiy qadriyat bo‘lishi mumkin. Misol uchun, mulkka yetkazilgan zarar moddiy obyekt hisoblanadi, biroq inson sha‘niga yetkazilgan zarar nomoddiy obyekt bilan bog‘liq. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, delikt majburiyatlarining obyektlarini to‘g‘ri aniqlash nafaqat zarar miqdorini belgilashda, balki javobgarlik hajmini aniqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Aynan obyekt tahlili orqali javobgarlikning huquqiy chegaralari va kompensatsiya shakllari aniqlanadi.

Delikt majburiyatlari instituti — bu fuqarolik huquqining zarar yetkazilgan holatlarda javobgarlikni belgilovchi, shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi. Uning huquqiy tabiati shundan iboratki, u shaxsning huquqqa xilof harakati yoki harakatsizligi natijasida boshqaga yetkazilgan zarar uchun tovon to‘lash majburiyatini belgilaydi. Ushbu institutning asosiy vazifasi — jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta‘minlash, zarar ko‘rgan shaxsning huquq va manfaatlarini tiklash, shuningdek, zarar yetkazgan tomonning javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini ta‘minlashdir. Delikt majburiyatlari fuqarolik huquqining muhim elementi sifatida, zarar yetkazgan shaxsning majburiyatlarini belgilab, huquqiy muhofazani ta‘minlaydi va huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, delikt majburiyatlari instituti o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi: u sud orqali yoki boshqa huquqiy tartibda zararlarni qoplash mexanizmini tashkil etadi, shu bois uning huquqiy tabiati ham fuqarolik javobgarligining ijtimoiy-ma‘naviy va iqtisodiy jihatlarini o‘zida mujassam etadi. Delikt majburiyatlari instituti — fuqarolik

huquqidagi adolat, tenglik va huquqiy barqarorlik tamoyillarining amaliy ifodasidir.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini shaffof baholash va tizimda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasining 07.11.2001-yildagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonun 5-moddasining ushbu qismiga muvofiq prokuratura organlarining xodimlari o‘z faoliyatlarida O‘zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) hamda boshqa qonun hujjatlarining talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chekinish, qanday asoslarga ko‘ra qilinishidan qat’i nazar, qonuniylikni buzish deb hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.³

Fuqarolik huquqida **delikt** — bu shaxsning qonun tomonidan belgilangan xatti-harakat yoki harakatsizlik me‘yorlarini buzgan holda, boshqa shaxsga moddiy yoki ma‘naviy zarar yetkazishi natijasida vujudga keladigan huquqiy javobgarlikni yuzaga keltiruvchi asosdir.

Delikt holati sifatida baholash uchun ushbu to‘rt asosiy element mavjud bo‘lishi shart:

Noqonuniy xatti-harakat yoki harakatsizlik — ya‘ni, qonun yoki axloq me‘yorlariga zid bo‘lgan harakat;

Zarar yetkazilishi — mol-mulkka, sog‘liqqa, sha‘nga yoki boshqa qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarga zarar;

Sababiy bog‘liqlik — zarar aynan ushbu harakat natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi lozim;

³ O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida 5-modda 7-noyabr 2001-yil.

Aybdorlik (ayb elementi) — zarar yetkazgan shaxsning ongli yoki ehtiyotsizlik asosidagi xatti-harakati.

Delikt holatlari sifatida quyidagilari ko‘rish mumkin:

Yuridik yoki jismoniy shaxsning noqonuniy harakatlari tufayli boshqaning mulkiga zarar yetkazilishi;

Davlat organining (prokuratura) qonunga zid qarori yoki harakatsizligi tufayli fuqaroga ma’naviy yoki moddiy zarar yetkazilishi;

Shaxsning ijtimoiy xavfli, axloqqa zid yoki o‘ta ehtiyotsiz xatti-harakati oqibatida jamoat tartibiga yoki boshqa shaxsning huquqlariga putur yetkazilishi.

Prokuratura organlari umuman olganda davlat organlari tomonidan fuqarolarga yetkazilgan zararlarni 01.03.1997-yildagi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 8-modda ikkinchi qismining 6-bandiga muvofiq ya’ni Fuqarolik huquq va burchlari qonunchilikda nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek fuqarolar hamda yuridik shaxslarning, garchi qonunchilikda nazarda tutilgan bo‘lmasa-da, lekin fuqarolik qonunchiligining umumiy negizlari va mazmuniga ko‘ra fuqarolik huquq hamda burchlarni keltirib chiqaradigan harakatlaridan vujudga keladi. Ushbu moddaning aynan shu ya’ni “boshqa shaxsga zarar yetkazish” qismi davlat organlari tomonidan fuqarolarga zarar yetkazilganda ularga javobgarlik mavjudligini ko‘rsatib beradi.⁴

Fuqarolik javobgarligi shakllari ichida deliktning o‘rni

Fuqarolik javobgarligi huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning yetkazilgan zararni qoplash majburiyati asosida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatdir. Bu

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1997-yil 1-mart, 8-modda, ikkinchi qism, 6-band.
SJIF: 5.051

javobgarlikning shakllari turlicha bo‘lishi mumkin: shartnoma asosida, delikt (ya’ni huquqbuzarlik) asosida, yoki boshqa qonunda belgilangan asoslar bilan.

Ular ichida **delikt javobgarligi** alohida o‘rin tutadi, chunki u fuqarolik majburiyatlari tizimining **eng qadimiy va universal** manbalaridan biridir. Delikt javobgarligi — bu shaxsning shartnomaviy munosabatlarga kirishmagan bo‘lsa-da, o‘zining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi orqali boshqa shaxsga zarar yetkazgani uchun javob berishidir.

Bu shakldagi javobgarlik:

profilaktik funksiyani bajaradi, ya’ni boshqa shaxslarning huquq va manfaatlariga putur yetkazmaslikni rag‘batlantiradi;

kompensatsion xususiyatga ega, ya’ni jabrlanuvchining buzilgan huquqlari tiklanadi; va **adolat prinsipiga asoslanadi**, chunki zarar yetkazgan shaxs uni qoplashga majbur bo‘ladi.

Shartnomaviy javobgarlik faqat tomonlar o‘rtasida oldindan tuzilgan bitim asosida yuzaga kelsa, **delikt javobgarligi ijtimoiy munosabatlar umumiy huquqiy tartibga bo‘ysunishini ta’minlaydi**, ya’ni har bir fuqaro yoki tashkilot jamiyat oldida javobgarlik his qiladi. Shu bois, u fuqarolik huquqidagi **umumiy javobgarlik shakli** hisoblanadi.

Delikt majburiyatining huquqiy obyekti

Delikt majburiyatlarining kengroq kontekstda “obyekt” tushunchasi faqat zarar ko‘rgan shaxs emas, balki ayni huquqiy manfaatlar – masalan, mulk huquqi, shaxsiy daxlsizlik, sog‘lik, sha’ni, ishchanlik obro‘si va boshqa muhofaza qilinadigan ijtimoiy qadriyatlarni ham anglatadi. Aynan ushbu qadriyatlarning buzilishi delikt majburiyatini yuzaga keltiradi.

Noqonuniy harakat (yoki harakatsizlik) – huquqbuzarlikning mohiyati

Huquqbuzarlik — bu huquq normalariga zid keladigan shaxsning ixtiyoriy harakati yoki harakatsizligi natijasida yuzaga keladigan, boshqalarning huquq va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazuvchi munosabatdir. Harakat — bu shaxs tomonidan amalga oshirilgan faoliyat yoki ish bo‘lib, u huquqqa zid bo‘lishi mumkin. Harakatsizlik esa shaxsning qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik, ya’ni lozim bo‘lgan harakatni amalga oshirmaslik holatidir. Fuqarolik huquqi nuqtai nazaridan harakat yoki harakatsizlik orqali sodir etilgan huquqbuzarliklar, ya’ni deliktlar, zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning javobgarlikni o‘z zimmasiga olishini talab qiladi. Bu jihatdan harakat va harakatsizlik huquqbuzarlikning shakllari sifatida qaraladi va ular delikt majburiyatlari instituti asosida tartibga solinadi.

Noqonuniy harakat yoki (harakatsizlik) — bu shaxsning qonun va huquqiy normalarga zid tarzda amalga oshirgan yoki amalga oshirmagan faoliyati bo‘lib, u boshqalarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadi. Noqonuniylik, huquqbuzarlikning asosi sifatida, nafaqat qilingan ishning mohiyatini, balki shu ishning huquqiy normalarga muvofiqligini ham belgilaydi. Harakat — bu ijtimoiy jihatdan talab qilingan yoki ruxsat etilgan faoliyatning aks etishi bo‘lsa, harakatsizlik — shunday faoliyatni lozim darajada amalga oshirmaslik yoki rad etishdir. Shu nuqtai nazardan, har ikki holat qonuniy majburiyatlarga zid bo‘lsa, u holda ular huquqbuzarlik sifatida baholanadi. Noqonuniylik esa shaxsning qasddan yoki beparvolik bilan qonun normalarini buzishi natijasida yuzaga keladi. Noqonuniy harakat yoki harakatsizlik, shaxsning huquqiy javobgarligini yuzaga keltirib, zarar ko‘rgan tomonning qonuniy huquqlarini himoya qilish mexanizmini

faollashtiradi. Shu bilan birga, bu tushuncha huquqni saqlashda barqarorlik va adolat tamoyillarining amal qilishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

1997-yil 1-martda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 990-moddasiga muvofiq, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslari tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik belgilangan. Unda quyidagicha ta'riflab o'tilgan. Davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qonunga xilof qarorlari natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, ular mansabdor shaxslarining aybidan qat'i nazar, sudning qarori asosida qoplanishi lozim. Davlat organlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar sudning qarori asosida qoplanishi lozim. Ushbu moddada ta'kidlanganidek, davlat organining noqonuniy harakatlari yoxud harakatsizligi oqibatida zarar ko'rgan fuqaro yoki yuridik shaxslar Sudlarining qarori asosida yetkazilgan zarar qoplanishi belgilab o'tilgan.⁵ Bundan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda fuqarolarga davlat organlari tomonidan yetkazilgan zararlarni qoplash xususida bazaviy qonunlar mavjud, ammo bu sohada yanada samarali mexanizmlarni yaratish va jahon tajribasini chuqurroq o'rganish muhimdir. Jahon amaliyotida davlat organlari javobgarligini tartibga soluvchi qonunchilik ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqilgan va amalga tatbiq etilmoqda.

Masalan, AQShda davlat organlari tomonidan fuqarolarga yetkazilgan zararlarni qoplash tartibi Federal davlat javobgarligi qonuni (Federal Tort Claims Act, 1946) orqali boshqariladi. Ushbu qonun davlat idoralarining noqonuniy

⁵ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1997-yil 1-martdan kuchga kirgan. Qarang: 990-modda. SJIF: 5.051

harakatlari yoki harakatsizligi natijasida fuqarolarga yetkazilgan zararlar uchun sud orqali da'vo kiritish imkoniyatini beradi va davlatning javobgarlik chegaralarini belgilaydi.⁶ Shuningdek, Fransiyada davlat javobgarligi konsepsiyasi "Responsabilité administrative" orqali tartibga solinadi. Bu konsepsiyaga ko'ra, davlat organlarining harakatlari natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun davlat ma'muriy sudlarda javobgar hisoblanadi va zararlarni qoplash majburiyati mavjud.⁷ Xitoyda esa davlat organlari javobgarligi Fuqarolik kodeksi va "Davlat organlari javobgarligi to'g'risida"gi alohida qonun bilan tartibga solingan bo'lib, davlat mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi natijasida yuzaga kelgan zararlar sud orqali qoplanadi.⁸

Ushbu misollar O'zbekistonda davlat organlari tomonidan yetkazilgan zararlarni qoplash mexanizmini yanada takomillashtirishda qaysi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, sud qarorlari ijrosining samaradorligini oshirish, davlat javobgarligi doirasini aniq belgilash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Javobgarlikning yuridik asoslari: konseptual yondashuv

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning yuzaga kelishi bir qator asosiy elementlarning mavjudligiga bog'liq. Ular ichida **ayb, zarar, sababiy bog'liqlik va noqonuniylik** eng muhimlaridan hisoblanadi. Bu to'rt omil o'zaro bog'liq tizimni tashkil etadi va ulardan birortasining yo'qligi javobgarlikni istisno etishi mumkin.

Ayb: javobgarlikning shaxsiy mezon

⁶ Federal Tort Claims Act, 1946, 28 U.S.C. §§ 1346(b), 2671-2680.

⁷ Leydu, J. "La responsabilité administrative en droit français", *Revue Française de Droit Administratif*, 2015.

⁸ Law of the People's Republic of China on State Compensation, 1994.

Ayb — bu shaxsning o‘z xatti-harakatlari (yoki harakatsizligi) oqibatlarini ongli ravishda e‘tiborsiz qoldirishi yoki ularni oldindan bilib turib, bartaraf etmasligidir. Fuqarolik huquqida ayb ko‘pincha subyektiv mezon sifatida ko‘riladi: Amaliyotda aybsizlik javobgarlikni istisno etuvchi asos bo‘lishi mumkin, ammo ba’zi hollarda (masalan, xavf manbai bilan bog‘liq javobgarlik) javobgarlik aybdan qat’i nazar yuzaga keladi.

Zarar: javobgarlikning natijaviy asosi

Zarar — bu jismoniy yoki yuridik shaxsning mol-mulkiga yoki shaxsiy manfaatlariga yetkazilgan real yo‘qotish yoki manfaatlarning kamayishidir. Zarar moddiy (pul ko‘rinishidagi yo‘qotish) yoki nomoddiy (shaxsiy obro‘, sha’n, sog‘liq) shakllarda bo‘lishi mumkin. Huquqiy javobgarlik, mohiyatan, zarar ko‘rgan tomonning buzilgan huquqiy holatini tiklashga xizmat qilishi lozim. Bu esa zarar tushunchasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va axloqiy qiymatini ham anglatadi.

Sababiy bog‘liqlik: oqibat va harakat orasidagi aloqa

Sababiy bog‘liqlik — bu zarar yetkazuvchi harakat (yoki harakatsizlik) bilan zarar o‘rtasida mavjud bo‘lgan mantiqiy va huquqiy aloqa. U quyidagi savolga javob beradi: “Agar ushbu harakat bo‘lmaganida, zarar ro‘y berarmidi?” Sud amaliyotida sababiy bog‘liqlikni aniqlash eng murakkab jihatlardan biridir. Bu yerda “yaqin sabab” nazariyasidan foydalaniladi: zarar aynan o‘sha harakat natijasida sodir bo‘lgan bo‘lishi kerak. Uzoq, noaniq yoki bilvosita sabablar odatda javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

Noqonuniylik: huquqqa zidlik mezoni

Noqonuniylik — bu shaxsning huquqiy me'yorlarga zid tarzda harakat qilganligi (yoki harakat qilmasligi). Huquqiy baholashda qonun, farmon, nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asos bo'lib xizmat qiladi. Noqonuniylik mavjud bo'lsa-da, ayrim holatlarda javobgarlik yuzaga kelmasligi mumkin. Masalan, zarurat holatida yoki qonuniy himoya doirasida sodir etilgan harakat noqonuniy bo'lmashligi mumkin. Shuning uchun ham har bir holatda huquqqa zidlik alohida tahlil qilinishi zarur

XULOSA

Mazkur ilmiy ishda fuqarolik huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lgan delikt majburiyatlari institutining huquqiy mohiyati, mazmuni hamda taraqqiyot jarayonlari batafsil tahlil qilindi. Delikt majburiyatlari — bu shaxslarning qonuniy manfaatlariga yetkazilgan zararlarni qoplashga yo'naltirilgan javobgarlik shakli bo'lib, ijtimoiy adolat, huquqiy barqarorlik va tenglik prinsiplari asosida huquq tizimida muhim o'rin egallaydi. Ushbu institut orqali huquqbuzarlik natijasida yuzaga kelgan nizolar sud yoki boshqa huquqiy vositalar yordamida hal qilinib, bu orqali huquq tartibini saqlash va jamiyatda adolatni ta'minlashga xizmat qilinadi. Delikt majburiyatlarining obyektlari mulkiy va nomoddiy manfaatlar bo'lib, zarar qonuniy asosda qoplab berilishi lozim. Fuqarolik huquqida delikt javobgarligi profilaktik, kompensatsion va adolat tamoyillariga asoslanib, shaxsning noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligi natijasida boshqalarga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilaydi. Shu bilan birga, davlat organlari faoliyatida yuzaga keladigan huquqbuzarliklar ham delikt majburiyatlari doirasida tartibga solinib, davlatning fuqarolarga bo'lgan huquqiy javobgarligini oshiradi. Tadqiqot davomida milliy va xalqaro qonunchilikdagi normativ-huquqiy asoslar tahlil qilindi hamda institutni yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar

ishlab chiqildi. Natijada, delikt majburiyatlari instituti zamonaviy huquq tizimida fuqarolik javobgarligining mustahkam poydevori hisoblanib, huquqiy davlat barpo etishda hamda fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qilishda asosiy vosita vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2023-yil 20-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, 2023 yil, 20-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Prokuratura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida 5-modda 7-noyabr 2001-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1997-yil 1-mart, 8-modda, ikkinchi qism, 6-band.
5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1997-yil 1-martdan kuchga kirgan. Qarang: 990-modda.
6. Federal Tort Claims Act, 1946, 28 U.S.C. §§ 1346(b), 2671-2680.
7. Leydu, J. “La responsabilité administrative en droit français”, Revue Française de Droit Administratif, 2015.
8. Law of the People's Republic of China on State Compensation, 1994.